



Academicia Globe: Inderscience Research

ISSN: 2776-1010 Volume 3, Issue 6, June, 2022

PROBLEMS OF DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITY IN UZBEKISTAN

Uktam Jiyanov

Senior Lecturer at the International Islamic Academy of Uzbekistan
Phone №: +998946626187, e-mail: uktam.jiyanov87@gmail.com

Annotation

The article discusses the opportunities and prospects for the formation and development of an innovative economy in Uzbekistan, as well as improving the institutional framework. Models of the world's fastest-growing innovative countries and innovation policies of the CIS member states are analyzed. The final conclusions were made on the problems and opportunities of the innovative model of development of Uzbekistan.

Keywords: innovation economy, intelligent economy, ICT, investment, venture capital, patent, license, innovation zone, IT technology, technopark, start-up, cluster, R&D.

O'ZBEKİSTONDA İNNOVATSION FAOLİYATNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Uktam Jiyanov,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Tel.: +998946626187, e-mail: uktam.jiyanov87@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlanirishning imkoniyatlari va istiqbollari, institutsional asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rilgan. Jahonda innovatsion faoliyat jadal rivojlanayotgan mamlakatlar modellari hamda MDHga a'zo mamlakatlarning innovatsion siyosati tahlil qilingan. O'zbekiston innovatsion rivojlanish modelining muammolari va imkoniyatlari bo'yicha yakuniy xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, intellektual iqtisodiyot, AKT, investitsiya, vechur, patent, litsenziya, innovatsion zona, IT texnologiya, texnopark, startap, klaster, ITTKI.

Ma'lumki, innovatsiyalar jahondagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy o'sishining asosiy omillaridan biridir. Innovatsion iqtisodiyot ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ustunligini ta'minlamoqda. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)ga a'zo davlatlar, birinchi navbatda, G'arbiy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlari, Osiyoda Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya innovatsion iqtisodiyotni yuqori darajada shakllantirib bo'ldilar. Bu mamlakatlar yuqori texnologiyali mahsulotlar jahon bozorining qariyb



90% ini egallab turibdi. Shuningdek, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot va rivojlangan venchur biznesiga ega mamlakat qatoriga birinchi navbatda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Avstriya, Kanada, Shvetsiya, Finlandiya, Singapur va Isroil kiritilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda jahon bozorida ilmtalab mahsulotlar hajmi 2,5 trln. AQSh dollaridan oshdi. Mazkur summaning 39% i – AQSh, 30% i – Yaponiya, 16% i – Germaniya mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri kelib, jahonda rivojlangan 7 ta mamlakat makrotexnologiyalari mazkur bozor hajmining qariyb 80% ini tashkil etadi.

Ilmiy-texnika, innovatsion jarayon jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidan kelib chiqadi. Iqtisodiyotning turi, shakli innovatsion jarayon turini shakllantiradi. Hozirgi paytda dunyodagi ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda milliy innovatsion modellar shakllangan. Milliy innovatsion modellar o‘sha mamlakatning tarixiy-madaniy rivojlanish darajasi, tabiiy-geografik sharoiti, ishlab chiqarish, iqtisodiy, sanoat, ilmiy-texnika potensiali, xalqning mentaliteti va boshqa o‘ziga xos omillardan kelib chiqadi.

Davlat “O‘yin qoidalari”ni birinchi navbatda innovatsion tizimning me’yoriy-huquqiy bazasini yaratish orqali bu faoliyatning rivojlanishiga keng yo‘l ochib beradi.

Ikkinchidan, davlat investitsiyalar, soliq imtiyozlari orqali mamlakatdagi innovatsion faollikni rag‘batlantiradi. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya va XXR da innovatsion jarayon qatnashchilari uchun innovatsiyalarni joriy etish boskichlari va murakkablik darajasini hisobga olib progressiv soliq tizimi joriy kilingan.

Uchinchidan, davlat maqsadli dasturlar, bashoratlar ishlab chiqish orqali ham innovatsion jarayonga ta’sir ko‘rsatadi. Buyuk Britaniyada 2004-2014 – yillarga mo‘ljallangan “Fan va innovatsiyalarni investitsiyalash milliy dasturi”, XXR da 2006-2020 yillarga mo‘ljallangan “Fan va texnologiyalarni rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli milliy dasturi”, Rossiyada 2006-2020 yillarga qaratilgan “Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi”, Qozog‘istonda 2003-2015 – yillarda industrial-innovanion rivojlanish strategiyasi, YeIda “Lissabon rivojlanish dasturi”, IHTTda “IHTTning innovatsion strategiyasi haqida Doklad” qabul qilingan. Xitoyda mamlakatni dunyo innovatsion markaziga aylantirish vazifasi qo‘yilgan. O‘zbekistonda ham innovatsion jarayonni rivojlantirishning institutsional asoslari takomillashtirilmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ3416-sonli qarori qabul qilindi. Endilikda fan va innovatsiyalar bo‘yicha barcha jarayonlar ushbu vazirlilik tomonidan amalga oshirilmoqda va muvofiqlashtirilmoqda. Vazirlik O‘zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini



oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organiga aylandi.

Bundan tashqari innovatsiya drayverlaridan hisoblanadigan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi qayta tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalar rivojlanishini Koordinatsiyalash bo‘yicha qo‘mita tashkil etilgan edi. Keyinchalik u Fan va texnologiyalar Komissiyasiga aylantirilib, uning ishchi organi sifatida Fan va texnologiyalar Agentligi tuzildi. O‘zbekistonda Fanlar akademiyasi huzurida bir qator ilmiy tadqiqot institutlari, universitetlar tarkibidan chiqarilib, qayta tiklandi, kimyo va fizika yo‘nalishida yangi ilmiy markazlar tashkil etildi. Natijada innovatsion loyihalarni moliyalashtirish o‘sdi, patentlar soni oshdi, ularni litsenziyalash jarayoni tezlashdi, yildan yilga samarali innovatsion texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqishga joriy qilish faollashmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda innovatsion faoliyatining turli jihatlariga tegishli bo‘lgan huquqiy-me’yoriy baza yaratildi, hukumatimiz tomonidan bu borada muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-aprelda “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3682-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror innovatsion faoliyatga keng imkoniyatlar yaratib berish bilan bir qatorda, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni to‘laqonli joriy qilish, ularni xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning dolzarbligini hisobga olgan holda ishlab chiqarish tarmoqlari amaliyotiga joriy qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator omillar sanab o‘tilib, bu muammolarni hal qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

2020-yilning 24-iyul kuni “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi va shu kundan e’tiboran kuchga kiritildi. Ushbu qonun O‘zbekiston innovatsion siyosat strategiyasini va tamoyillarini shakllantirish tartiblarini aniqlaydi. Jumladan, qonun iqtisodiyotda ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatning o‘rnini belgilashda moliyalashtirishning ko‘plab manbalari, innovatsion faoliyatni boshqarish tamoyillari, innovatsiya sohasida davlat va viloyatlar miqyosida davlat boshqaruv organlari ta’sirining asosiy shakllari va xalqaro ilmiy-innovatsion hamkorlikning huquqiy asoslarini aks ettirishga yordam beradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududlarida innovatsiya faoliyatini rivojlantirish borasida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaroriga binoan davlat balansidagi tashlandiq korxonalar o‘rnida tegishli imtiyoz va preferentsiyalarga ega kichik sanoat zonalari tashkil etilmoqda. Klaster, industrial park (texnopark), hududiy ishlab chiqarish



komplekslari, sanoat aglomeratsiyasi, erkin iqtisodiy (industrial) zonalar, biznes, olimlar va innovatorlar o‘zaro hamkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun noyob platforma hisoblanadigan ilmiy-texnologik park va startaplar tashkil etilmoqda. Toshkentda dastur mahsulotlari va IT texnologik parki tashkil etish, umuman, Toshkent shahri hududini shartli ravishda innovatsion zonaga tenglashtirish choralari ko‘rilmoxda.

Lekin bu boradagi yechimini kutayotgan muammolar ham talaygina. O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish Strategiyasiga muvofiq global innovatsiyalar indeksi reytingining top 50 taligiga kiritish uchun innovatsiyalar, fan va texnologiyalarni boshqarishning yangi mexanizmlarini yaratish zarur.

Eng katta muammolardan biri innovatsion faoliyatni moliyalashtirishdir. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha bo‘lgan davrda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontseptsiyasi loyihasiga muvofiq innovatsion rivojlanish asoslarini yaratish uchun ITTKIga yo‘naltiriladigan vositalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 0,25% dan 1-1,5% ga oshirish taklif qilinmoqda. Taqqoslash uchun Shvetsiya, Avstraliya, Italiya kabi mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 3,0% dan kam emas. AQShda esa 2,74%, Xitoyda – 2,43%, Irlandiyada hatto 4,3% ni tashkil etadi. Irlandiyaning innovatsion mahsulotlar eksportidagi yuqori mavqeい tasodifiy emas.

Bu maqsad yo‘lida bir qator to‘siqlar va qiyinchiliklarni bartaraf etish ham kerak bo‘ladi. Ular jumlasiga moliyaviy vositalarning yetishmasligi, malakali innovator va venchurist kadrlarning kamligi, yangi texnika va texnologiya haqidagi axborotlarning yetishmasligi, innovatsion mahsulotlar bozorining torligi, yangilikni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, korxonlarning innovatsion tizimga o‘tishga tayyor emasligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Freeman. (1995). The “National System of Innovation” in historical perspective. Cambridge Journal of Economics, Pp. 15-37.
2. Mensch. (1979). Stolemate in technology: Innovations Overcome the Depression. New York (USA): Ballinger Publishing Company.
3. Мирзиёев, Ш. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига мурожаатнома. (2021 йил январь).
4. “Инновацион фаолият тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини



Academicia Globe: Inderscience Research

ISSN: 2776-1010 Volume 3, Issue 6, June, 2022

тасдқилаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли фармони. From www.lex.uz:
<https://lex.uz/ru/docs/3913188?otherlang=1>

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини анада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони. From www.lex.uz: <https://lex.uz/docs/3107036>
7. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Эксмо, 2007.